

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PHD 03/30.12.2021.P.26.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

QILICHEVA SAYYORAXON BAXTIYAROVNA

**ICHKI ISHLAR XODIMLARIDA STRESSGA BARQARORLIKNING
IJTIMOIY- PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2024

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по психологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on the
Psychological Sciences**

Qilicheva Sayyoraxon Baxtiyarovna

Ichki ishlar xodimlarida stressga barqarorlikning ijtimoiy-psixologik
xususiyatlari.....3

Kilicheva Sayyoraxon Baxtiyorovna

Социально-психологические особенности стрессоустойчивости сотрудников
органов внутренних дел
23

Qilicheva Sayyoraxon Baxtiyarovna

Social and psychological characteristics of stress resistance of employees of
internal affairs
bodies..... 46

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works 50

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PHD 03/30.12.2021.P.26.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

QILICHEVA SAYYORAXON BAXTIYAROVNA

**ICHKI ISHLAR XODIMLARIDA STRESSGA BARQARORLIKNING
IJTIMOIY- PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2024

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PHD/P863 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.psi-ik.uz) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abdullayeva Barno Sayfutdinovna
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Qodirov Umarali Do'stqobilovich
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Safarov Dilmurod Xalimovich
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
professor

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD03/30.12.2021.P.26.02 raqamli bir martalik Ilmiy kengashning 2024-yil «_____» kuni soat_____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27. Tel: (+99871) 276-82-32; faks (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27. Tel: (+99871) 276-82-32)

Dissertatsiya avtoreferati 2024- yil «___» _____ kuni tarqatildi.

(2024-yil «___» _____ dagi ___ raqamli reyestr bayonnomasi).

D.S.Karshiyeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

N.B. Atabayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, psixologiya fanlari doktori (DSc),
professor

Z.T. Nishanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, psixologiya
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissyertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda stress muammosi inson shaxsining ruhiy salomatligiga rahna soluvchi tashqi va ichki noqulay vaziyatlarga nisbatan reaksiyasini ifodalovchi psixologik holat hisoblanadi. Globallashuv jarayonlari chuqurlashuvi natijasida qaysi yosh, jins, faoliyat turi bilan band bo'lishidan qat'iy nazar, shaxsda yuzaga keladigan zo'riqish, tashvish, qayg'u va boshqa murakkab vaziyatlar yuzaga kelishida stress asosiy omil vazifasini bajaradi. Ayniqsa, jamiyat tinchligi uchun mas'ul bo'lgan ichki ishlar xodimlarining ruhiy salomatligida stress masalasi dolzarb ahamiyat kasb etishi shubhasiz. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha: «...Insondagi kasalliklarning 90%i stress bilan bog'liq bo'lib, ... u turli xildagi kasalliklar, nevrozlar ortishining sababchisi bo'lib qolmoqda... Nizoli va vaziyatlar yuzaga kelganda stress depressiya, umidsizlik, tushkunlik kayfiyati bilan birgalikda kechadigan xavfli onkologik kasalliklarning paydo bo'lishini ham tezlashtiradi»¹. Bu borada ichki ishlar xodimlarida stressga bardoshlilikning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini ilmiy-amaliy tadqiq etish zarurati yuzaga keladi.

Jahon oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-amaliy markazlarida kasbiy stress namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik determinantlarning o'ziga xos jihatlari, omillari va komponentlarini aniqlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Junladan, Amerika psixologlar assotsiatsiyasining bergan ma'lumotlariga ko'ra, ichki ishlar xodimlarining salomatligi uchun stress katta zarar ekanligi..., agar ular hozirgi davrda stresslarni boshqarishning samarali usullarini o'rganmasalar, bu ularning sog'ligiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin ekanligi ta'kidlangan². Bugungi kunda «asr kasalligi» deb e'tirof etilgan stressning 65% ini sababi stressogen vaziyat yuzaga keltirsa-da, ichki ishlar xodimlarining stressga bardoshlilikdagi ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlash dolzarb masalalardan bo'lib qolmoqda. Buning uchun maxsus modellashtirilgan topshiriqlardan iborat psixodiagnostik metodikalar majmuini ishlab chiqish, psixoemotsional barqarorlikni ta'minlovchi psixotexnikalarni yaratishga e'tibor ko'rsatish zarur bo'lib, kasbiy faoliyatda stressni yuzaga keltiruvchi turli ekstremal vaziyatlarni chuqur va atroflicha o'rganish zarurati ko'rinadi va mazkur muammoni ilmiy tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda so'nggi yillarda ichki ishlar xodimlarining kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratish borasida zarur huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi. «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunida «Ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilishdan, qonun ustuvorligini, shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasidan iborat ekanligi, ular uchun

¹ Ю.Н.Корыстов. Эмоции, стресс, курение, потребление алкоголя и рак – корреляционные и причинные связи //Журнал ВНД им И.П.Павлова. 2007. - № 4. - С -627.

² American Psychological Association. www.unicef.org - ЮНИСЕФнинг сайти маълумотлари (мурожаат ҳолати 29.10.2019)

davlat tomonidan sog'lig'ini saqlash, mehnatiga haq to'lash, uy-joy maydoni bilan ta'minlash, ijtimoiy yordam ko'rsatish» zarurligi belgilangan³.

O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 1-maydagi 837-son «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida» Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2018-yil 4-avgustdagi PF-3898-son «O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari xizmatchilarining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida», 2017-yil 1-maydagi PQ-2940-son «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida» Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi 472-sonli «Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida» gi Qarorlari va faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan keng ko'lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Stress muammosi psixologiya fanida ma'lum darajada o'rganilgan muammo bo'lib, aynan stressga barqarorlikni o'rganish borasida bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Respublikamizda stress bilan bog'liq masalalarni psixolog olimlardan F.A.Akramova, D.D.Boymirzayeva, M.G.Davletshin, R.Y.Ernazarova, Z.S.Elov, O.Y.Hayitov, N.Z.Ismoyilova, V.M.Karimova, M.X.Karamyan, D.U.Mamadiyarova, Z.T.Nishonova, U.D.Qodirov, D.S.Qarshiyeva, B.N.Siliyev, R.S.Samarov, F.T.Shermatov, G'.B.Shoumarov va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan A.N.Akopyan, A.A.Andreyeva, V.M.Bondina, V.A.Bodrov, B.B.Velishkovskiy, B.X.Vardanyan, O.V.Lozgashyeva, T.L.Kryukova, V.I.Petrushin, A.B.Rogozyan, N.Y.Yablonskiy P.B.Zilberman va boshqalar stressga barqarorlik darajasiga ta'sir etuvchi omillar, yuqori intellektual va emotsional zo'riqishlarning faoliyatga ta'siri, ish jarayoniga stressning ta'sirini o'rgangan.

Xorij tadqiqotchilaridan Dj.Evyerli, R.Lazarus, Z.Freyd, Ye.Fredenbug, S.Folkman, L.A.Kitayev-smik, G.Ollport, R.Rozenfeld, G.Selye, R.Thoits va boshqalar aynan stressga barqarorlik holatlarini tadqiq etishgan.

³ O'zbekiston Respublikasi «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi Qonuni, O'RG - 407-son 16-sentabr, 2016-yil.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishining tadqiqiy qismi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining OT-F1-126 «O'zbekiston yoshlarida psixologik yetuklik ko'rsatkichlarini o'rganishning psixodiagnostika vositalarini ishlab chiqish, ilmiy asoslash va amaliyotga tadbiq etish» loyihasi doirasida bajarilgan (2017-2021 yy.).

Tadqiqotning maqsadi ichki ishlar xodimlarida stressga barqarorlikning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tadqiq etish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ichki ishlar xodimlarida stressga barqarorlikning shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarini aniqlash;

ichki ishlar xodimlarida stressga barqarorlik va koping-strategiya mexanizmlarining o'zaro munosabat xususiyatlarini tadqiq qilish;

ichki ishlar xodimlarida stressga **barqarorlikni** oshirishda psixologik himoya mexanizmlarining o'rnini tadqiq etish;

ichki ishlar xodimlarida stressga barqarorlikni oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obekti safatida ichki ishlar xodimlarida stressga barqarorlikning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tanlangan bo'lib, tadqiqotga Toshkent viloyati ichki ishlar boshqarmasidan 125 nafar, Buxoro viloyati ichki ishlar boshqarmasidan 80 nafar, jami 205 nafar respondentlar jalb qilingan.

Tadqiqotning predmetini ichki ishlar xodimlarida stressga barqarorlikning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida suhbat, anketa, kuzatish, metodlaridan, shuningdek, D.Amirxanning «Stressni yengish strategiyasi» metodikasi, K.Tomasning «Ziddiyatni yengishga bo'lgan o'smir xulq-atvor motivatsiyasini o'rganish uslubi», S.Norman, D.F.Endler, D.A.Djeyms, M.I.Parker tomonidan ishlab shiqilgan «Stressli vaziyatlarda javob reaksiyasini baholash» metodikasi hamda Plutchikning «Psixologik muhofaza mexanizmlarini diagnostika qilish» so'rovnomasidan foydalanildi. Olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi matematik statistika metodlaridan Styudentning t-mezoni, K.Pirsonning r-korrelyatsiya koeffitsienti, faktorli tahlil orqali tasdiqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ichki ishlar xodimlarining stressga barqarorligida nizoli vaziyatlarni konstruktiv, operativ yechim topishiga intilishning ofiserlarda, stressli holatlardan qochishga urinishning safdor xodimlarda kuchli namoyon bo'lishi tufayli «muammoni hal qilish» va «muammodan qochish»ning ustuvor harakterga ega ekanligi isbotlangan;

ichki ishlar xodimlarida stressga chilamlilik barqarorligini ijtimoiy-psixologik xususiyati ijtimoiy vaziyatlarda «muammoni hal qilish», «muammodan qochish», «topshiriqlarni hal qilishga va emosiyaga yo'nalganlik»ning ustuvorlik

darajasiga ko'ra safdor xodimlar va ofiserlarning kasbiy faoliyatida differensial farqlanishi asoslangan;

ichki ishlar xodimlarining stressli vaziyatlardagi koping xulq strategiyalari kasbiy topshiriqni hal qilishga yo'nalganlik regressiya, kompensatsiya, emotsiyaga yo'nalganlik inkor yetish, proyeksiya, o'zini chetga olishga yo'nalganlik giper kompensatsiya bilan integrativ namoyon bo'lishi tufayli ularning psixologik himoya mexanizmlarini faollashuviga bog'liq ekanligi isbotlangan;

ichki ishlar xodimlarining stressli vaziyatlardagi koping strategiyasi kasbiy faoliyatdagi topshiriqni hal qilishga yo'nalganlik xodim-xodim, xodim-fuqaro munosabatlaridagi kelishuv, moslashuvni, emotsiyaga yo'nalganlik o'zaro muloqotdagi bahs-munozara, ziddiyatdan qochishni yuzaga kelishiga olib kelganligi tufayli nizoli holatlardagi xulq-atvor uslubiga bog'liq holda namoyon bo'lishi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ichki ishlar xodimlarida stressga barqarorlikni oshirishning psixologik determinantlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari aniqlangan;

ichki ishlar xodimlarida stressga barqarorlikni oshirishni koping-strategiya bilan aloqadorligiga xos psixologik xususiyatlar ko'rsatib berilgan;

ichki ishlar xodimlarida stressga barqarorlikni rivojlantirishda koping mexanizmlarning konstruktiv usullarini qo'llash tamoyillariga asosan psixotexnologiyalar, maxsus model va trening dasturi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi foydalanilgan psixodiagnostik metodikalarning psixometrik talablarga javob berishi; tadqiqot vazifalariga mos, o'zaro bir-birini to'ldiradigan tadqiqot metodlarining qo'llangani; tadqiqot obyekti sifatida turli hududlardagi oliy ta'lim muassasalarining tanlanganligi; olingan empirik natijalarni qayta ishlashda matematik-statistik tahlil qilish usullardan foydalanilganligi; K.Pirsonning r-korrelyatsiya koeffitsiyenti, Styudentning t-mezoni) va miqdoriy ko'rsatkichlarni psixologik talqin etishda ishonchlilik hamda muqarrarlikning statistik mezonlariga tayanilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati to'plangan natijalarning ilmiy ahamiyati stress va stressga barqarorlik, stressga barqarorlikni oshirishning psixologik determinantlari haqidagi ilmiy qarashlarni kengaytirilganligi; stressga barqarorlikning mexanizmlari ichki ishlar xodimlarida o'ziga xos muayyan qonuniyatlar asosida turlicha kechishi va stressga barqarorlikning oshirilishi borasidagi ma'lumotlar tahlili asosida psixologik stress haqidagi ilmiy bilimlarning jamlanganligi; Ichki ishlar xodimlarida stressga barqarorlikni oshirish va o'z-o'ziga baho, frustratsion tolerantlik, koping-strategiyani qo'llashning psixologik jihatlari milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda ko'rsatib berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan natijalarning Ichki ishlar xodimlarida stressga barqarorlikni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirishga xizmat qilishida; stressga barqarorlikni oshirishga ta'sir etuvchi determinantlarini o'rganish orqali shaxs psixik taraqqiyotiga ta'sir etish yo'llarining ochib berilishida; stressga barqarorlikni oshirishning uslubiy

vositalarini takomillashtirish bo'yicha tadqiqot natijalari psixolog kadrlar amaliy tayyorgarligini oshirishga yordam berishida o'z ifodasini topganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ichki ishlar xodimlarida stressga barqarorlikning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari o'rganishga doir olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari asosida:

ichki ishlar xodimlarining stressga barqarorligida nizoli vaziyatlarni konstruktiv, operativ yechim topishiga intilishning ofitserlarda, stressli holatlardan qochishga urinishning safdor xodimlarda kuchli namoyon bo'lishi tufayli «muammoni hal qilish» va «muammodan qochish»ning ustuvor harakterga ega ekanligi isbotlangan takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 4-sentabrdagi PM-190 son buyrug'i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-sentabrdagi PM-190 a-son ma'lumotnomasi). Natijada ichki ishlar xodimlarining stressga barqarorligiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar aniqlashtirilgan;

ichki ishlar xodimlarida stressga chidamlilik barqarorligini ijtimoiy-psixologik xususiyati ijtimoiy vaziyatlarda «muammoni hal qilish», «muammodan qochish», «topshiriqlarni hal qilishga va emotsiyaga yo'nalganlik»ning ustuvorlik darajasiga ko'ra safdor xodimlar va ofitserlarning kasbiy faoliyatida differensial farqlanishi asoslangan takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 4-sentabrdagi PM-190 son buyrug'i bilan «Yuridik psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-sentabrdagi PM-190 a-son ma'lumotnomasi). Natijada ichki ishlar xodimlarida stressga chidamlilik barqarorligi va o'z-o'ziga baho berish, tolerantlik, koping-strategiya mexanizmlarining o'zaro munosabat xususiyatlarini tadqiq qilingan;

ichki ishlar xodimlarining stressli vaziyatlardagi koping xulq strategiyalari kasbiy topshiriqni hal qilishga yo'nalganlik regressiya, kompensatsiya, emotsiyaga yo'nalganlik inkor etish, proyeksiya, o'zini chetga olishga yo'nalganlik giperkompensatsiya bilan integrativ namoyon bo'lishi tufayli ularning psixologik himoya mexanizmlarini faollashuviga bog'liq ekanligi isbotlangan takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 4-sentabrdagi PM-190 son buyrug'i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-sentabrdagi PM-190 a-son ma'lumotnomasi). Natijada ichki ishlar xodimlarining stressli vaziyatlardagi koping xulq strategiyalari psixologik himoya mexanizmlarini faollashuviga bog'liq ekanligi aniqlashtirilgan;

ichki ishlar xodimlarining stressli vaziyatlardagi koping strategiyasi kasbiy faoliyatdagi topshiriqni hal qilishga yo'nalganlik xodim-xodim, xodim-fuqaro munosabatlaridagi kelishuv, moslashuvni, emotsiyaga yo'nalganlik o'zaro mulqotdagi bahs-munozara, ziddiyatdan qochishni yuzaga kelishiga olib kelganligi tufayli nizoli holatlardagi xulq-atvor uslubiga bog'liq holda namoyon

bo'lishi asoslangan takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 4-sentabrdagi PM-190 son buyrug'i bilan «Yuridik psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-sentabrdagi PM-190 a-son ma'lumotnomasi). Natijada ichki ishlar xodimlarining stressli vaziyatlardagi koping strategiyasi nizoli holatlardagi xulq-atvor uslubiga bog'liq holda namoyon bo'lishiga oid jihatlar aniqlashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy ish chop etilgan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, ushta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 140 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, mavzu bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi va muammoni o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti, predmeti, ishning fan va texnologiyalar rivojlanishining muhim yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning amaliyotda joriy etilishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning «**Ichki ishlar xodimlarida stressga barqarorlikni o'rganishdagi ilmiy yondashuvlar**» deb nomlangan birinchi bobida stressga barqarorlik muammosining nazariy-ilmiy asoslariga tayangan holda xodimlar kasbiy faoliyatining psixologik tamoyillari bilan bog'liq tahliliy sharhlar keltirilgan. Stressga barqarorlik muammolarini o'rganishga doir manbalarni tahlil qilish orqali ushbu hodisaning nazariy va amaliy jihatlari ochib berilgan. Shuningdek, G.Sele, R.Lazarus, S.Folkman, D.Amirxan, P.B.Zilberman, S.Maddi, V.M.Yaltonskiy, B.X.Vardanyan, B.B.Velichkovskiy, B.G.Mesheryakov, L.A.Kitaev-Smik, V.A.Bodrov, A.A.Baranov, S.V.Subbotin, A.P.Katunin kabi psixologlarning stress va stressga barqarorlikka oid nazariy qarashlari umumlashtirilgan va koping xulq komponentlariga doir ma'lumotlar tizimlashtirilgan.

O'zbekistonda psixolog olimlar tomonidan ko'plab ilmiy tadqiqot ishlarida shaxsda kechadigan stress, uni keltirib chiqaruvchi stressorlar, stressga barqarorlik va unga ta'sir etuvchi omillar masalalariga alohida e'tibor berilgan. Xususan, O.E.Hayitov, D.S.Qarshiyeva, D.D.Beknazarova, N.Z.Ismoilova, R.Y.Ernazarovalarning jamoa va pedagogik faoliyat bilan bog'liq holatlar misolida stress va stressga barqarorlik hodisalarining tadqiq etilganiga oid ma'lumotlar tahlil etilgan.

O'rganilgan ilmiy adabiyotlar tahlili bugungi kunda ichki ishlar xodimlarining kasbiy faoliyati bilan bog'liq stressga barqarorlik shakllanishiga bevosita ta'sir etuvchi omillarni empirik jihatdan o'rganish, mazkur tadqiqot natijalari asosida ilmiy xulosalarni shakllantirish hamda kelajakda psixologiya fani uchun muhim bo'lgan amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish muqarrarligini ko'rsatdi.

Dissertatsiyaning «Ichki ishlar xodimlarida stressga barqarorlikning psixologik xususiyatlari» deb nomlangan ikkinchi bobi o'rganilayotgan muammoning empirik tahliliga bag'ishlangan bo'lib, ushbu bobda tadqiqotning empirik asoslari, tadqiqotda qo'llanilgan metodlarning umumiy tavsifi, o'tkazish tartibi, olingan natijalarning tahlili va ichki ishlar xodimlarida salbiy emotsional holatlarni kelib chiqishiga ta'sir etuvchi omillar orasidagi korrelyatsion bog'lanishlar natijalari o'z aksini topgan. Bundan tashqari mazkur bobda stressga barqarorlikning dinamik xususiyatlari, stressga barqarorlik bilan koping strategiya va koping zahira komponentlarining korrelyatsion aloqasiga doir empirik ma'lumotlar sharhi ham berilgan.

Dastlab, D.Amirxanning «Stressni yengish strategiyasi» orqali olingan dastlabki natijalar tahliliga o'tamiz.

1-jadval

D.Amirxanning «Stressni yengish strategiyasi» testi natijalari (n=205)

Shkalalar nomi	O'rtacha(M)		Farqlar	
	Safdor xodimlar n=135	ofitserlar n=70	t	p
Muammoni hal qilish	12,3	14,6	-2,1*	0,05
Ijtimoiy yordamni izlash	17,1	17,0	-0,9	0,16
Muammodan qochish	18,3	15,1	-2,3*	0,05

Izoh:* - $p \leq 0.05$; ** - $p \leq 0.01$.

Jumladan, «Muammoni hal qilish» ($t=-2,1$; $p \leq 0,05$) hamda «Muammodan qochish» ($t=-2,3$; $p \leq 0,05$) omillarida ahamiyatli darajadagi farqlar kuzatildi. «Ijtimoiy yordamni izlash» omilida esa farqlar qayd etilmadi. Muammoni hal qilish ko'nikmasi, turli ko'rinishdagi strategiyasidan foydalangan holda bu vaziyatni o'z nazoratiga olish va uning yechimi uchun harakat qilish xususiyatlari ofitserlarda nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi. Mazkur holat ularning ijtimoiylashuv jarayonlari hamda mehnat tajribasi bilan belgilanadi.

Ijtimoiy yordamni izlash omili har ikkala responyentlar guruhida bir xil natijani ko'rsatdi. Ayrim shaxslar stressogen vaziyatlarda muammoni hal etish usulidan foydalanish yoki stress vaziyatlarida muammoni o'zi hal qilish o'rniga boshqalarga murojaat qilishni, ya'ni ijtimoiy qo'llab quvvatlash usulidan foydalanishni ma'qul ko'rishadi.

Muammodan qochish omili ham safdor xodimlarida yuqori natijani ko'rsatdi. Ya'ni shaxs stressogen vaziyatga dush kelganida bu vaziyatni hal etish o'rniga koping strategiyaning muammodan qochish usulidan qanshalik ko'p foydalansa, uning stressga barqarorligi shunshalik pasayadi. Bu yanada aniqroq asoslash uchun aytish lozim, shaxs stressogen vaziyatga dush kelganida, muammoni ko'rmaslikka urungani va undan qochgani bilan bu muammo hal bo'lib qolmaydi yoki o'z o'zidan bartaraf etilib qolmaydi, shaxs muammoga yana qayta to'qnashadi va bu

uni yana stress sari yetaklaydi. Umuman olganda, yuqorida qayd etilgan D.Amirxanning metodikasi talablari doirasida talqin qilingan yenga olish strategiyalari ichki ishlar xodimlari uchun xarakterli bo'lgan xulq-atvor bilan bog'liq ko'rsatkichlar iyerarxik tizimining o'ziga xos imkoniyatlari ko'rsatildi.

Demak, D.Amirxanning «Stressli vaziyatlarda yenga olish strategiyalari» nomli modifikatsiya qilingan holda qo'llanilgan metodika natijalari yuqorida ta'kidlaganimizdek, ichki ishlar xodimlarining stressli vaziyatda yenga olish strategiyalari yuzasidan juda muhim empirik ma'lumotlarga ega bo'lish imkonini berdi. Bu ma'lumotlar ichki ishlar xodimlarini stressli vaziyatlarda stressni yenga olish strategiyalari bilan bog'liq tasavvurlarini bilishga va shu tasavvurlar orqali ularga to'g'ri psixologik yondashuv yo'llarini belgilab olishga imkon yaratadi.

2-jadval

Shaxsdagi stressli vaziyatdagi koping xulq-atvorni tadqiq qilish uslubi orqali olingan natijalar (n=205)

Shkalalar nomi	O'rtacha(M)		Farqlar	
	Safdor xodimlar n=135	ofitserlar n=70	t	p
Topshiriqni hal qilishga yo'nalganlik	23,5	25,9	-2,6*	0,05
Emotsiyaga yo'nalganlik	21,0	18,2	-2,0*	0,05
O'zini chetga olishga yo'nalganlik	18,2	15,6	-2,4*	0,05

Izoh:* - $p \leq 0.05$; ** - $p \leq 0.01$.

«Topshiriqni hal qilishga yo'nalganlik» ($t=-2,6$; $p \leq 0,05$), «emotsiyaga yo'nalganlik» ($t=-2,0$; $p \leq 0,05$) hamda «o'zini chetga olishga yo'nalganlik» ($t=-2,4$; $p \leq 0,05$) omillarida farqlar kuzatildi. Olingan natijalar esa ichki ishlar xodimlarida stressli vaziyatga javob reaksiyasini hamda stressli vaziyatdagi koping xulq-atvor strategiyalarini baholashga xizmat qiladi. Ichki ishlar xodimlarini kasbiy faoliyatga tayyorlash, hayotda o'z o'rnini topishi, albatta, hozirgi kundagi dolzarb muammolardan sanaladi. Ichki ishlar xodimlarida emotsiyaga yo'nalganlik holatining yuqori bo'lishi birinchi navbatda o'zini o'zi baholashdagi noadekvatlikni hamda kasbiy faoliyatidagi bezovlatik darajalarini kelib chiqishiga sabab bo'lar ekan. Mazkur holat ularni shaxslararo munosabatlariga ham bevosita ta'sir etmasdan qolmaydi. Ichki ishlar xodimlaridagi salbiy hissiy holatlardagi differensial farqlarga ko'ra, jamoasi va kasbiy faoliyati bilan bog'liq xavotirlanish jismoniy, shaxslararo munosabatlarda tan olinish istagini ifodalovchi bezovtalik tajovuzkorona reaksiyalarni shaxsning o'ziga beradigan bahosiga integrativ tarzda kuchaytirganligi tufayli moyillikning ustuvorligi asoslandi.

Ichki ishlar xodimlarida «O'zini chetga olishga yo'nalganlik» omili ham o'rtachadan yuqori natijani qayd etdi. Ya'ni xodimlar hali hamon o'z muammolarini mustaqil hal etish ko'nikmasligining yetarlicha shakllanmaganligi bois mazkur usulga murojaat etuvchilar soni sezilarli darajada mavjuddir. Bu natija xodimlarda muammodan qochishning o'ziga xos tendensiyasi bilan ifodalanadi. «Muammodan qochish» – bu shaxsning qiyin stressogen vaziyatlarda muammoni

koʻrmaslikka olish, undan chetlanishga urinishi bilan asoslanadi. Bunda aksariyat odamlar boshqalar bilan muloqot qilish tendensiyasiga asoslanadilar. Alohida qayd etish lozim, bu tendensiya ijtimoiy yordamni izlash tendensiyasidan farqli ravishda bu muloqot jarayonida stressogen vaziyat yoki shaxsni qiynayotgan muammo haqida umuman gapirilmaydi, shunchaki, muammodan qochib, oʻynab kulish maqsadi qoʻyiladi. Muammodan qochishning yana bir yoʻnalishi sifatida xodimlar orasida odatda muammodan qochish usuli sifatida virtual olamga «sayr qilish»ni xush koʻradilar. Biroq bu olamdan chiqqanidan soʻng muammoning hali hamon hal etilmaganligini anglagach, ularning stress holati yanada kuchayadi.

3-jadval.

Nizoli vaziyatlarni hal qilish usullarini aniqlash natijalari (n=205)

Shkalalar nomi	Oʻrtacha(M)		Farqlar	
	Safdor xodimlar n=135	ofitserlar n=70	t	p
Bahs-munozara	5,1	7,3	-2,4*	0,05
Hamkorlik	7,1	7,0	-0,9	0,12
Kelishuv	6,3	6,1	-1,0	0,10
Oʻzini chetga olish	6,8	4,2	-2,4*	0,05
Moslashuv	6,2	5,8	-1,2	0,09

Izoh:* - $p \leq 0.05$; ** - $p \leq 0.01$.

Olingan natijalari tahliliga oʻtadigan boʻlsak, K.N.Tomasning ziddiyatli holatdan chiqish motivatsiyasi koʻrsatkichlari orasida «Bahs-munozara» va «Oʻzini chetga olish» omillari oʻrtasida ishonchli farqlar aniqlandi. Bu holatning asosiy sabablariga yanada koʻproq aniqliklar kiritish maqsadida har bir respondent bilan individual suhbatlar olib borildi. Yigʻilgan maʼlumotlarning kontent-tahlil natijalariga murojaat qilindi. Umuman, barcha qoʻshimcha usullarning natijalari ham oʻrganildi. Dastlabki «bahs-munozara» omili ofitserlarda ustunlik qildi ($t = -2,4$; $p \leq 0,05$). Mazkur holat yuqori bosqich talabalarida orasida koʻproq bahs-munozaraga moyillik, oʻz «men»ligini ustun qoʻyish har qanday holatda oʻz fikri va gʻoyalarini boshqalarnikiga nisbatan ustun qoʻyishga intilish kabi harakatlarning yaqqol namoyon etilishi bilan koʻzga tashlanib turdi.

«Oʻzini chetga olish» omili esa safdor xodimlarda yuqori natijani koʻrsatdi ($t = -2,4$; $p \leq 0,05$). Bu shundan dalolat beradiki, har qanday ziddiyatli holatlar paytida oʻzlarini chetga olib turishni va munozaralarga aralashmaslikni, chetda turib voqelikni kuzatib borishni afzal bilganliklari kuzatildi. Umuman, mazkur tadqiqot davomida olingan ushbu maʼlumotlar ichki ishlar xodimlaridagi oʻziga xos ijtimoiy-psixologik omillarni talqin qilish va muammolarni bartaraf etish uchun tegishli tavsiyalarni ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotimiz davomida ichki ishlar xodimlarining stressga barqarorlik darajasini oʻrganish boʻyicha bir qator metodikalardan foydalanib, tegishli empirik maʼlumotlarni qoʻllashga kirishdik. Endi, Kellerman-Plutchikning psixologik muhofaza mexanizmlarini diagnostika qilish metodikasi orqali ichki ishlar xodimlarining psixologik muhofazasi qay darajada ekanligi, ularda qaysi mexanizm omili ustunlik qilishi aniqlandi.

4-jadval

Plutchikning «Psixologik muhofaza mexanizmlarini diagnostika qilish» metodikasi bo‘yicha olingan natijalar, n=205

Omillar	O‘rtacha (M)		Farqlar	
	Safdor xodimlar n=135	ofitserlar n=70	t	p
Inkor etish	10,8	8,1	-2,2*	0,05
Siqib chiqarish	9,4	9,8	-1,0	0,16
Regressiya	11,9	8,8	-3,0*	0,05
Kompensatsiya	8,7	11,2	-2,6*	0,05
Proyeksiya	8,5	8,9	-0,9	0,23
O‘rnini almashtirish	8,4	9,2	-0,9	0,05
Kognitivlik	9,9	10,2	-1,3	0,18
Giperkompensatsiya	5,9	6,2	-1,1	0,22

Izoh:* - $p \leq 0.05$; ** - $p \leq 0.01$.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, tadqiqotimizning navbatdagi bosqichida xodimlarning psixologik muhofaza omillarini tadqiq qilishda Plutchikning «Psixologik muhofaza mexanizmlarini diagnostika qilish» usulidan foydalandik. Jumladan, «Inkor etish», «Regressiya» «Kompensatsiya» omillarida ahamiyatli darajadagi farqlar qayd etildi.

«Inkor etish» omili safdor xodimlarda yuqori natijani ko‘rsatdi ($t=-2,2$; $p \leq 0,05$). Inkor etish – bu o‘zi haqida hosil bo‘lgan tasavvurga to‘g‘ri kelmaydigan yangi ma’lumotlardan qochishga intilishdir. Inkor etish atrofdagilar tomonidan diqqatni barqarorligining yetarli darajada rivojlanmaganligi sababli bo‘ladi, bu yerda diqqatning har qanday negativ tomonlarini qabul qilish bosqichi to‘xtaydi, pozitiv tomonlari esa davom etadi. Safdor xodimlar faoliyati davomida beqaror emotsiyaning ustunligi, atrofdagilarga nisbatan e‘tiborsizlik xususiyatlari ustun ekanligi aniqlandi. Mazkur himoya mexanizmiga mansub shaxslar yangi fikrlarni rad etadi, odatda o‘zining bunday xulq-atvori natijasida to‘g‘ri xulosa chiqara olmaydi. Bu esa ularning kasbiy faoliyatida yutuqlarga erishishida ma’lum bir to‘siqlar kelib chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin.

«Regressiya» omilida ahamiyatli darajadagi farqlar qayd etildi ($t=-3,0$; $p \leq 0,05$). «Regressiya» omili safdor xodimlarda yuqori ekanligi aniqlandi. Regressiya – xulq-atvor va tafakkurning ilk shakllariga qaytish turidagi psixologik mexanizmdir. Regressiya erta bolalikdan o‘zini qo‘lga ololmaslik, tashabbus paydo bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lgan muvaffaqiyatsizlik qo‘rquvi, hissiyotni jilovlash uchun rivojlanadi. Shaxsning tajribasi ulg‘ayib borgan sari shaxslararo munosabatlarda paydo bo‘ladigan anglashmovchilik yoki noqulaylik hissiyotini yo‘qotish uchun samarali usul hisoblanadi. Odatda mazkur omil xodimlarda tushkunlikka tushgan paytda u o‘z yoshiga mos xulq-atvorni ko‘rsata olmasligi namoyon bo‘ladi. Regressiyaning me‘yoridan ortiq tez-tez va intensiv qo‘llanilishi xodimlar xarakterning nomustahkam tipini shakllantiradi. Bu esa odatda alkogol va

narkotiklarga biologik tobelikning shakllanishida kuzatiladi, chunki regressiya emotsional zo‘riqish tashqariga yo‘naltirilgan munosabatlarda past samaradorlikni ko‘rsatadi. Buning natijasida, o‘zini-o‘zi past baholashga ega bo‘lgan xodimlarga xos bo‘lgan ichki nizolarni ko‘payishiga olib keladi.

«Kompensatsiya» omili ofitserlarda yuqori ko‘rsatkichni namoyon qildi ($t=-2,6$; $p\leq 0,05$). Mashhur olim A.Adler tomonidan o‘rganilgan kompensatsiya mexanizmlari va uning g‘oyalariga ko‘ra ijtimoiylashuv davrida paydo bo‘lgan ayrim kamchiliklar hamda shaxsning salbiy individual xususiyatlarini tuzatish asosiy vazifasi hisoblanadi. Bu A.Adler fikriga ko‘ra salbiy emas, chunki u ta‘lim va nuqsonli rivojlanish yoki neyropsixik qayta qurish orqali o‘z o‘rnini qoplashni talab qiladi, bu esa oxir-oqibat psixikaning differensial rivojlanishiga olib keladi. Kompensatsiya muhofaza mexanizmini yuqori bo‘lishi, xodimlarning muayyan shaxs xususiyatlari, depressiya, salbiy emotsional holatiga ta‘sir qiladi. Bu esa ularni kasbiy faoliyatida muvafaqqiyatga erishishida asosiy omil sifatida xizmat qiladi.

5-jadval

Ichki ishlar xodimlarida «Shaxsdagi stressli vaziyatdagi koping xulq-atvorni» va «Psixologik muhofaza mexanizmlarini diagnostika qilish» metodikalari o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘lanishlar (n=205)

Omillar	Topshiriqni hal qilishga yo‘nalganlik	Emotsiyaga yo‘nalganlik	O‘zini chetga olishga yo‘nalganlik
Inkor etish	0,11	0,30*	0,08
Siqib chiqarish	0,14	0,16	-0,29*
Regressiya	0,39*	-0,04	0,02
Kompensatsiya	0,36*	-0,14	0,13
Proyeksiya	0,17	0,42*	0,02
O‘rnini almashtirish	0,07	0,20	0,06
Kognitivlik	0,02	-0,40*	0,03
Giperkompensatsiya	0,08	0,13	0,31*

Izoh: * - $p\leq 0,05$; ** - $p\leq 0,01$.

Ichki ishlar xodimlarida «Shaxsdagi stressli vaziyatdagi koping xulq-atvorni» hamda «Psixologik muhofaza mexanizmlarini diagnostika qilish» metodikalari o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘lanishlar tahliliga ko‘ra, «Topshiriqni hal qilishga yo‘nalganlik» «Regressiya» ($r=0,39$; $p\leq 0,05$) hamda «Kompensatsiya» ($r=0,36$; $p\leq 0,05$), bilan bilan ijobiy bog‘lanishlar qayd etildi. Aslida shaxs o‘zining individual psixologik xususiyatlari hamda yuzaga kelgan vaziyatga bog‘liq ravishda koping xulqni qo‘llaydi. Ichki ishlar xodimlarining kasbiy faoliyatida esa «inson-inson» munosabatlari tizimining serqirraligi tufayli koping strategiyalar vaziyatga qarab, psixologik himoya mexanizmlari bilan uyg‘un holda namoyon bo‘ladi. Ichki ishlar xodimlarining stressli vaziyatlarda topshiriqlarni hal qilishga yo‘nalganligi vaziyatni aqlan hal qilish, holatni mayda detallarigacha tahlil qilish, barcha narsalarni adolat tarozisida tortib ko‘rishga urinishi orqali eng optimal yechimga kelishini anglatar ekan regressiya va kompensatsiya mexanizmini o‘z xatti-harakatlarida kuchaytiradilar. Mazkur holat ichki ishlar xodimlari stressli vaziyatni hal qilishga uringalarida o‘z «men»larini regressiv tarzda himoya qilish uchun

sodda harakat stereotiplarini amalga oshirishga urinadilar. Boshqa holatlarda esa stressli holatlarni yechimini topish uchun ijtimoiy qadriyatlar, ustanovkalar bilan bog‘liq sifatlarni o‘zlarida bo‘rttirib ko‘rsatish orqali kompensatsiya mexanizmini faollashtiradilar. Ichki ishlar xodimlari stresslarni yengishning topshiriqlarni hal qilishga yo‘nalgan tipi asosida o‘zlarning shaxs individual xususiyatlariga bog‘liq holda o‘z menini destruktiv ta’sirlardan himoyalar ekan, o‘zlari tushib qolgan vaziyat uchun «shablon harakatlardan», shaxsiy sifatlarini bo‘rttirib ko‘rsatishga yo‘naltirgan, boshqashasiga aytganda «tartib bo‘yicha (po protakolu)» harakatlarni amalga oshirishga urinadilar. Shu boisdan, topshiriqlarni hal qilishga yo‘nalganlik regressiya va kompensatsiya bilan ijobiy bog‘lanishlarga ega bo‘lgan.

Navbatdagi mezon stressli holatlarda emotsiyalarga yo‘nalganlikdir. Ichki ishlar xodimlarining emotsiyalarga yo‘nalganligi muamoni hal qilishdagi o‘z kamlariga e‘tiborning kuchliligi, o‘zini tahlil qilishda zo‘riqish, xavotir, bezovtalikning past darajada namoyon bo‘lishi bilan belgilanadi. Ichki ishlar xodimlarining natijalarida «Emotsiyaga yo‘nalganlik» omili «Inkor etish» ($r=0,30$; $p\leq 0,05$) va «Proyeksiya» ($r=0,42$; $p\leq 0,05$) bilan ijobiy, «Kognitivlik» ($r=-0,40$; $p\leq 0,05$) bilan esa salbiy bog‘lanishlarga ega ekanligi qayd etildi. Sinaluvchilarimizdagi emotsiyaga yo‘nalganlikning inkor etish bilan ijobiy bog‘lanishlarga ega ekanligi shaxsni frustratsion holatni, xavotirlanish hissini ichki impulslar hisobiga inkor etishga urinishini anglatadi. Boshqachasiga aytganda ichki ishlar xodimlari nizoli holatlarni, stressni keltirib chiqaruvchi vaziyatlarni «ko‘rmaslikka, idrok etmaslikka» urinadilar. Bu psixologik mexanizm ko‘pincha ichki ishlar xodimlarida shaxsiy hurmat va ijtimoiy mavqelari xavf ostida qolgan vaziyatda kasbiy madaniyat talablari nuqtai nazaridan faollashadi. Shu boisdan, ko‘p hollarda ichki ishlar xodimlariga nisbatan tahqirlovchi, haqoratli so‘zlar bilan fuqaro tomonida tazyiq o‘tkazilganda ham vaziyatni «ko‘rmaslikka» olish orqali o‘zlarini stressdan himoyalashga urinadilar. Ichki ishlar xodimlarining proyeksiyalash mexanizmi bilan emotsional yo‘nalganligini ijobiy korrelyatsiyasi ular o‘zlari uchun yoqimsiz bo‘lgan xislarni, fikrlarni tashqariga, ya’ni boshqa insonlarga ko‘chirib o‘tkazishi, lokalizatsiyalashi orqali stressga beriluvchanliklarini kamaytirishlarini anglatadi. Masalan, ichki ishlar xodimlari o‘zlaridagi kasbiy kompetentlik darajasini atrofidagi odamlarning muvaffaqiyatlari orqali baholashga urinadilar. Bunda xodim o‘zining atrofdegilar tomonidan ma’qullanmagan aytaylik haddan ortiq agressivligini boshqalarga unchalik yomon emasligi isbotlash uchun asosiy himoya vositasi sifatida «men shu odamni to‘g‘ri yo‘lga kirishiga sabab bo‘lganman» dan foydalanadilar. Shu boisdan, ichki ishlar xodimlarining emotsiyalarga yo‘nalganligi bilan proyeksiya va inkor etish mexanimzlari ijobiy korrelyatsiya bergan. Sinaluvchilarimizdagi stressli vaziyatlarda emotsiyaga yo‘nalganlik kognitivlik bilan salbiy korrelyatsiya bergan. Buning sababi, hissiyotlar faollashganda vaziyatni aql bilan tahlil qilish kamayadi. Aslida kognitivlik stressli holatlarni aqlan fikr yuritib, mayda detallarigacha aniqlik kiritib, stressning ahamiyatlilik darajasini pasaytirishga urinishda ko‘rinadi. Biroq, hissiyotlarning faollashuvi, kechinmalarni intensivligi nizoli, frustratsion

vaziyatlarda aqliy faollikni tormozlanishiga olib keladi. shu boisdan, ikki mezon orasida salbiy bog‘lanishlar kuzatilgan.

Navbatdagi mezon o‘zini chetga olishga yo‘nalganlikdir. «O‘zini chetga olishga yo‘nalganlik» omili «Giperkompensatsiya» ($r=0,31$; $p\leq 0,05$) bilan ijobiy, «Siqib chiqarish» ($r=-0,29$; $p\leq 0,05$) bilan salbiy korrelyatsion bog‘lanishlarga ega ekanligi kuzatildi. Ichki ishlar xodimlarining stressli vaziyatlarda o‘zini chetga olishi muammoni hal qilmay o‘zlarini boshqa o‘zlari uchun qiziqarli bo‘lgan ishga, ya’ni xobbi, kitob o‘qish, dam olish, atrofdagilar bilan muloqot qilishga urishga harakat qilishlari bilan belgilanadi. Sinaluvchilardagi giperkompensatsiyalashning o‘zini chetga olish bilan ijobiy bog‘lanishlarga ega ekanligi xodimlarni stress, frustratsiya holatida o‘zini boshqa mashg‘ulotlarga jalb qilish orqali chiqib ketishga urinishlari ko‘rsatadi. Bu yerda mashg‘ulotni rakursini almashtirish giperkompensatsiya vazifasini bajaradi. Natijalarimizdagi o‘zini chetga olishga yo‘nalganlikning siqib chiqarish bilan salbiy bog‘lanishlarga ega ekanligi xodimning vaziyatni adekvat hal etishga urinishini anglatadi. Bizga ma’lumki, siqib chiqarishda stress, nizo tashqariga siqib chiqarilgani bilan intropsixik nizolar emotsional sohadagi xavotirlanishni kuchaytirishda davom etaveradi va shaxsni o‘zini-o‘zi izolyatsiyalashga olib keladi. Bu esa ichki ishlar xodimlarining ish faoliyatiga salbiy ta’sir yetadi. Shu boisdan, ichki ishlar xodimlari o‘z «men»larini stresslardan himoyalashda siqib chiqarishdan ko‘ra boshqa mexanizmlarni qo‘llashga urinadilar. Bu yerda yeng katta faktor ichki ishlar xodimi stresslarni o‘ziga yo‘nalgan holda bartaraf etish strategiyasini qo‘llaganida ham, uning kasbiy faoliyat yo‘nalishi uni «inson-inson» munosabatlari tizimidan uzoqlashishiga yo‘l qo‘ymadi. Shu boisdan, ikki mezon orasida salbiy bog‘lanishlar kuzatilgan.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, ichki ishlar xodimlarining stressli vaziyatlardagi koping xulq strategiyalari ularning psixologik himoya mexanizmlarini faollashuviga bog‘liq ekanligi aniqlangan.

Dissertatsiyasiyaning navbatdagi bosqichida ichki ishlar xodimlarida «Shaxsdagi stressli vaziyatdagi koping xulq-atvorni» va «Nizoli vaziyatlarni hal qilish usullarini aniqlash» metodikalari o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘lanishlarni aniqladik. Natijalar 6-jadvalda berilgan.

